

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

## ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA QO'LLASH

**U.Ahmedov**

*QDPI Sport va harakatli o'yinlar kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jismoniy tarbiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash hamda hozirgi kunda oliy ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o'qitish metodikasi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy tarbiya, o'qituvchi, o'qitish metodikasi, amaliy mashg'ulotlar, mashqlar, harakat faoliyat.

Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilari O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan hamda ilmiy asoslangan ta'lif texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lif-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar. Bugungi kundagi pedagogik texnologiya - ularning milliy-nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tug'ildi, degan savol paydo bo'lishi mumkin. Talabalarga har xil harakat faoliyatlarini o'rgatishda jismoniy tarbiya o'qituvchisi sharoitga qarab har doim ham shu harakat yoki uning ayrim unsurlarini ko'rsatib berolmaydi, shunday hollarda o'rganilayotgan harakat haqida ko'rgazmali tasavvur hosil qilish bo'yicha usuliyat talablari bilan o'qituvchi tomonidan ko'rsatilishi imkon yo'qligi orasida muammoli vaziyat yuzaga keladi. Biz bilamizki, ko'rgazmalilikni bevosita yaratishning bir guruh usullari mavjud. Shunday qilib, algoritmik tipdag'i amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish quyidagi bosqichlarni ko'zda tutadi:

- muayyan toifadagi vazifalarni yechish uslubiyati tushunib olishga yordam beradigan bilimlar o'zlashtirilishini nazorat qilish;
- o'zlashtirilish ob'yekti bo'lgan vazifalarning yechish uslubiyati bilan tanishish;
- aniq vazifa materiallari asosida o'rganilgan uslubiyatga muvofiq ravishda talabalarning individual faoliyatni tashkil etish;

Tipik qiyinchiliklar va ulafni yengish yo'llarini guruh bo'lib muhokama qilishni tashkil etishning talabalar tomonidan bajarilib borishi va natijalarini tahlil qilish, kelgusida egallanishi mumkin bo'lgan malakalarni takomillashtirish bo'yicha vazifa qo'yish.

Seminar o'tkazishning dastlabki maqsadi ma'ruza yoki axborotni jamoa bo'lib muhokama qilishdir. Seminarning samaradorligi albatta, talabalarni unga tayyorlash sifatiga bog'liq. Ayniqsa, ma'ruza va axborot tayyorlayotgan talabalar bilan ishlash muhim ahamiyatga ega.

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Talabalarni seminarga tayyorlash bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Birinchi bosqichda o‘qituvchi talabaning seminar mavzusini aniqlab beradi. Mavzuni tanlash va bo‘lg‘usi ma’ruza yoki axborotni tayyorlashda ularga nisbatan o‘qituvchi shunchaki, talaba deb qaramasligi kerak, balki ularni seminarda muhokama qilinadigan mavzuning ahamiyatini, dolzarbligini fikrlashga, o‘quv fanini keyinchalik muvaffaqiyatli egallash uchun uni chuqur o‘rganishi lozimligini anglashga, bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatining hozirgi ijtimoiy, ilmiy muammolarini rejalashtira olish darajasiga olib kelish zarur. Bunda vaqt ni tejash, tashkiliy ishlarni jadallashtirish uchun talabalarga mavzu bo‘yicha adabiyotlarni, imkoniboricha, mavzulari va sahifalarini ko‘rsatgan holda tavsiya etish lozim. Talabalarni ma’ruza va axborotlarga tayyorlashning birinchi bosqichida uning mavzusi bo‘yicha referatning batafsil rejasini tuzish vazifasi yuklanadi. Ikkinci bosqichda, talabalarni ma’ruza qilishga tayyorlashda o‘qituvchi u bilan birga referat rejasini muhokama qiladi, uning ayrim o‘rinlarini tuzatadi. Bu, o‘z navbatida, dastlabki fikrlarini tezlikda tuzatish, aniqlik kiritish, to‘ldirish imkonini beradi va u pirovard natijada bo‘lg‘usi ma’ruzaning sifatini oshiradi. Uchinchi bosqichda, o‘qituvchi talaba tayyorlab kelgan referatning mazmuni bilan tanishadi. Zaruriyat tug‘ilganda, unga savollar qo‘yish, talaba esa bu suhbatdan so‘ng tegishli xulosa chiqarishi lozim bo‘ladi. Shuningdek, shunday savollarni ham berish kerakki, talaba bu savollarga o‘z chiqishida javob bersin. Ayni o‘rinda talabaning seminarda ma’ruza qilish uslubi ham muhokama qilingani ma’qul. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, faqat ma’ruza bilan qatnashadigan talabalar bilan ishlab, boshqa talabalar nazardan chetda qolmasin, balki guruhdagi barcha talabalar oldindan muhokama qilinadigan mavzular bilan tanish bo‘lishi, seminar mavzusi bilan aloqador leksiya va qo‘sishma materiallar mazmuni ustida ishlagan bo‘lishi, mavzuga muvofiq ravishda olinayotgan bilimlarni nazorat qilishga va mavzuni muhokama qilishga tayyor bo‘lishlari lozim. Bunday seminar mashg‘uloti odatda muhokama qilinadigan mavzuning mohiyati va dolzarbli leksiya materiali bilan bog‘lashni O‘qituvchi bu tadbirlarni muvafaqqiyatli amalga oshira olsa, talabalar uning fikrlariga diqqat bilan qo‘silib boradi, muammolarning yechilish oqimiga qo‘silib ketadi, birga fikr yuritadi, birga hayajonlanadi, shu tariqa mashg‘ulotning qatnashchisiga aylanadi. Bunda o‘qituvchi talabaning bilish jarayonini savollar berish, savolga savol berish yo‘li bilan boshqaradi va shu orqali auditoriyadagi o‘rganilayotgan materiallar bo‘yicha ziddiyatlarga diqqatni jalb qiladi va talabalarni o‘ylab fikr yuritishga majbur qiladi. O‘qituvchi tushunilmagan savolni hal qilishidan oldinroq talabalar o‘zlaricha o‘z javoblarini tayyorlab qo‘yadilar va uni ma’lum muddat o‘tgach o‘qituvchining fikri va xulosasi bilan taqqoslaydilar.

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Jismoniy tarbiya darsining samaradorligi ko‘proq o‘qituvchining dars jarayonini tahlil qilishiga, o‘qitishda qanchalik zamonaviy shakl va metodik usullardan foydalанишига, texnik vositalar va jihozlardan unumli foydalанишига bog‘liq. O‘qituvchi har bir darsni yuqori vosita intensivligi bilan olib boradi. puxta rejalahtirilishi, ya’ni o‘quvchilarни o‘qitish va tarbiyalashda ularning faolligini oshirishni ta’minlashi kerak. Masalan, o‘quvchilarни darsda yangi mashqlar bilan tanishtirish, ya’ni himoya va yordamni talab qilmaydigan o‘rganilgan harakatni yaxshilash rejalahtirilgan bo‘lsa, darsni tashkil etishning umumiyligi (frontal) usulidan foydalish mumkin. Bu o‘quvchilarning harakat faoliyatini to‘liq o‘zlashtirishlariga yordam beradi.

Darsni tashkil etishda guruh usulini qo‘llagan holda o‘qituvchi o‘quv yuklamasini aniq taqsimlashi va o‘quvchilar tomonidan topshiriqlarning bajarilishini diqqat bilan kuzatib borishi mumkin. Ular o‘z xatolarini tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Keyinchalik, har bir kishi, ayniqsa, yuqori sinflarda to‘garak o‘qitish usulida o‘rganishga ko‘proq odatlangan. Bu o‘quvchilar tomonidan bir necha guruh bo‘lib davra ichida bajarilishidan iborat. Aylanish usuliga yengil atletika, sport o‘yinlarining gimnastika elementlari, shuningdek, predmetlar bilan bajariladigan umumiyligi rivojlantirish mashqlari (gimnastika o‘rindig‘ini to‘ldirish to‘plari, gantellar bilan), sakrash, sakrash, emaklash, sirpanish, baland joydan sakrash (gimnastika devorida) kiradi. , turli akrobatik mashqlar (hip hops, tik turish va boshqalar) va charchoqni bartaraft etadigan mashqlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Umumiyligi o‘rtacha ta’lim maktablari uchun yangi dasturga ko‘ra, ular majburiy arizaga aylanadi. Uy vazifasi mazmunini asosan harakat sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar egallaydi. Yil davomida uni doimiy ravishda kuzatib borish kerak (baholash harakatning to‘g‘ri bajarilishi va mashqlar natijasining o‘zgarishi bo‘yicha amalga oshiriladi).

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Azizzxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent 2003. - 174 b. [1]
2. Muratova, G. R. "MODERN REQUIREMENTS FOR THE CREATION OF EDUCATIONAL PUBLICATIONS ON PHYSICAL EDUCATION FOR SECONDARY SCHOOLS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.5 (2023): 1-4.
3. Муратова, Г. "АКТИВИЗАЦИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ ПУТЁМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

**Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari**

СОРЕВНОВАТЕЛЬНО-ИГРОВОГО МЕТОДА." Science Promotion 4.1 (2023): 24-29.

4. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir, Gafurov Abduvohid Makhmudovich, and Yuldasheva Jamilakhan Mukhtorovna. "The role of gymnastics in the educational process." Open Access Repository 8.12 (2022): 5-8.

5. Mukhtorovna, Yuldasheva Jamilakhan. "EFFECTIVE WAYS OF MANAGING THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF SPORTS." Open Access Repository 8.12 (2022): 693-697.

6. Mukhtarovna, Yuldasheva Jamilakhan, Melikhujayeva Noilakhan, and Mirzarahimova Muhtasarkhan. "THE PECULIARITY OF TAKING GYMNASTICS CLASSES WITH STUDENT GIRLS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.03 (2023): 47-51.

7. Умаров, А., & Хожимуродова, М. (2023). ПРОБЛЕМЫ ЖЕНСКОГО СПОРТА В СЕМЕЙНО БРАЧНЫХ УСЛОВИЯХ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(6), 313–317. <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6Y2023N42>

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

## JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI FOYDALANISH.

***U.Ahmedov***

*QDPI Sport va harakatli o‘yinlar kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish , jismoniy tarbiya darslarida ishlataladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda ulardan dars davomida foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Oliy ta’lim muassasalari,jismoniy tarbiya, pedagogik texnologiyalar, talabalar, o‘qitish metodikasi, sport mashg‘ulotlari.

Hozirgi kunda barcha pedagoglar singari jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga ham darslarni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish, darsga innovatsion yondashuvni, talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishni dars davomida shakllantirish kabi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Interfaol metod – ta’lim jarayonida talabalar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali talabalarni jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida,bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.Interaktiv (interfaol)-inglizcha so‘z bo‘lib, “interakt” “inter”-bu, o‘zaro, “akt”-bu —harakat qilmoq -ma’nosini anglatadi.Umumlashtirganda esa —interaktiv (interfaol) —o‘zaro harakat qilmoq ma’nosini anglatadi.[1]

Noan’anaviy hamda interfaol dars orasidagi farqlar:

1.O‘quv rejadagi mavzularni o‘qitishda, qaysi mavzular bo‘yicha inter faol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur.Bunda bir mavzu bo‘yicha mashg‘ulotning maqsadiga to‘liq erishishni ta’minlaydigan interfaol yoki an’anaviy mashg‘ulot turlaridan foydalanish ko‘zda tutiladi.

2.Interfaol mashg‘ulotning samarali bo‘lishi uchun talabalarni yangi mashg‘ulotdan oldin, uning mavzusi bo‘yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta’minlash zarur.[2]

3. Interfaol mashg‘ulotda talabalarning mustaqil ishlashlari uchun an’anaviy mashg‘ulotga nisbatan ko‘p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Interfaol ta’lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi.Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi talabalarning muayyan shart-sharoitlari darajasini bilsagina, ularning bilish va o‘rganish faolligini oshirishga erisha oladi.Buning uchun talabalarning interfaol o‘quv mashg‘ulotga tayyorlash, o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirib olishlari, xamda o‘quv mashg‘ulotiga

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

tayyorlanib kelishlari, dars jarayonida o‘qilgan yoki tinglangan matn yuzasidan muhokamalar o‘tkaza bilishlari, ijodiy , amaliy xarakterdagi topshiriqlarni osonlikcha bajarishlari zarur.[3]

Ta’lim jarayoni faqat o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan jarayon emas, u talabalar faoliyati bilan ham chambarchas bog‘langan. Talabaning o‘z-o‘zini boshqarishi natijasida o‘quv jarayoni faollashadi. Jismoniy tarbiya va sport darslarida talabaning o‘z xatti-harakatini o‘zi nazorat qilishi, yo‘l qo‘ygan xatolarini o‘zi aniqlashi va bartaraf etishi, mustaqil holda xulosalar chiqarishi, reproduktiv, qisman izlanuvchanlik va ijodiy topshiriqlarni bajarishda ishtirok etishi , talaba faolligini oshiradi va uni amalga tadbiq etilishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Jismoniy tarbiya va sportning nazariy, amaliy darslarida, interfaol metodlardan foydalanishning afzalligi:

- 1.Talabalarni mavzularni chuqur o‘zlashtirilishi; [4]
- 2.O‘qituvchi tomonidan talabalarni nazorat qilishning qulayligi
- 3.Talabalarni qisqa vaqt ichida ko‘proq malumot olishi
4. Talabalarni ko‘nikma va malakalarini maksimal rivojlanishi ,

Jismoniy tarbiya darslari jarayonida talabalarning o‘qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv talabalarni ta’lim jarayoniga qiziqtiradi, talabalarning darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallahsga undaydi. Interaktiv metodlar o‘qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Masalan, “Baxtli tasodif” usuli. “Baxtli tasodif” usuli orqali mavzu yuzasidan uuga berilgan topshiriqlarni nechog‘lik o‘rganilganligini aniqlash oson bo‘лади. Buning uchun qog‘ozdan kartochkalar tayyorlanadi va har bir kartochkaga 2-3 tadan savollar qo‘yiladi. Faqat bitta kartochkaga “Yutuq “5” baho” deb yoziladi. Shu yutuqli kartochka kimga tushsa “Baxtli tasodif” sohibi hisoblanadi va bugungi darsda eng yuqori ballni oladi. Savolli kartochkalar olgan talabalar ham savollarga bergen javoblari asosida baholanadilar. Masalan, jismoniy tarbiya darsida “baxtli tasodif” o‘yini quyidagicha tashkil etilishi mumkin: [5]

“Baxtli tasodif” o‘yini uchun tuzilgan kartochkalar:

Baxtli tasodif – 1

1. Jismoniy tarbiya prinsiplari qaysilar?
2. Jismoniy tarbiya sistemasining asosini nimalar tashkil qiladi?

Baxtli tasodif – 2

1. Jismoniy tarbiyaning xarakterli belgilari?
2. Voleybol qanday sport turi.?

Baxtli tasodif – 3

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

1. Jismoniy mashqlar ta'sirini aniqlaydigan omillar?

2. Basketbol nima qanday o'ynaladi?

Baxtli tasodif – 4

Yutuq «5» baho

Bunday usullar talabada bilimga ishtiyoq uyg'otadi. Talaba darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-talabalarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalari rivojlanadi, talabalar orasida emotsional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent 2003. - 174 b. [1]

2. Azizzxo'jayeva N.N. O'qituvchi mutaxssislari tayyorlash texnologiyasi. – Toshkent «Nizomiy TGPU». 2000. - 52 b. [2]

3. Ashmarin B.A..Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi.Toshken-2013[3].

4. V.Kachashkin. Jismoniy tarbiyaning metodik asolari.Toshkent-1982.[4]

5.www.ziyonet.uz[5]

6. qizi, X. M. K. . (2023). AN INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF WOMEN'S SPORTS BASED ON GENDER EQUALITY. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 437–440. Retrieved from <https://univerpubl.com/index.php/horizon/article/view/1582>

7. qizi, X. M. K., O'rmonjonovich, I. F., & qizi, A. M. A. (2022). Problems of Development of Physical Culture and Sports after Independence. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(12), 58-62. Retrieved from <https://www.cajlpc.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/637>

8. THE ROLE OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS ON THE BASIS OF INVATIONAL APPROACHES IN STRENGTHENING HUMAN HEALTH SM Rahimov, MK Xojimurodova – 2023

9. Умаров, А., & Хожимуродова, М. (2023). ПРОБЛЕМЫ ЖЕНСКОГО СПОРТА В СЕМЕЙНО БРАЧНЫХ УСЛОВИЯХ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(6), 313–317. <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6Y2023N42>